TARBIYANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi – Termiz davlat Pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti ” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
Davlatov Asilbek Ravzatulloyevich – Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy tarbiya, uning ahamiyati, bola tarbiyasidagi muhim jihatlar haqida so‘z boradi. Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari qisqacha yuritilgan. Maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, ajdodlarimiz merosi, xulq-atvor, sharqona odob, qadriyat, madaniyat, ma’rifat.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo‘lgan. Ota-bobolarimiz farzand o‘stirar ekanlar, ularning xulq-atvoriga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o‘z maqsadlarini qanday so‘zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo‘rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo‘ya ishlarga zinxor-bazinxor yo‘l qo‘ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma’lum. Chunonchi, Quroni karim oyatlari mazmuni, Payg‘ambarimiz hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning muhim manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan.

Janob Rasulullоh (s.a.v) hadislarida: “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!’’, “Hech bir ota o‘z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi’’, deyilgan. Yana bir hadisda: “Mo‘min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir’’, deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o‘z farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyali bo‘lishi uchun kurashganlar. Yoshlarni tarbiyalashda “Mening bolam’’, “Sening bolang‘’ deb ajratishmagan. Tarbiya berish hammaning burchi deb qaralgan.

Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillika intilib, ruhiy najot yo‘lini qidiradi. Shu orzu-intilish samarasi o‘laroq, ma’naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Komil inson haqidagi ta’limot insonni yuksak kamolotga yetishini ko‘zda tutadi. Komillik bu – insonning yerda qilgan hamma ishlari ma’naviy e’tiqod bilan sug‘orilishidir.

O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aql-u zakovatga, qomusiy bilim va qobilyatga ega bo‘lgan Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy,

Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi. Ular tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi, doimo huriyat va erk sari intildi.

Inson koinotdagi barcha mavjudodlar ichida eng ulug‘i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki inson haqiqat haqida o‘ylaydi. Kamolot yo‘liga chiqish uchun u asta-sekin o‘zligini izlaydi. Alisher Navoiy “kamol et kasb kim” deya da’vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko‘p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o‘zini xirs-ta’ma, nafs, g‘aflat, nodonlik singari mayllardan poklamasa, hech vaqt komil bo‘la olmaydi. “Olam uyi”ida yashash – uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeyiga ko‘tarilishini xohlagan. Xuddi shu mavqeyini esa kamolotning oliy cho‘qqisi deb bilgan.

Navoiy o‘z davrida komil insonlarni “Ahli ma’ni” deb bilgan. “Ahli ma’ni” bu fikrli insonlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma’ni chuqurligi bo‘lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglashdir. “Ahli ma’ni” deganda oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoyi kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan insonlarning tafakkuri keng bo‘ladi [N. G. Dilova:1]

Chunki ular aql oddiy so‘z va tushunchalardan emas, balki diyonat, adolat, insof, iymon, ishq, dard tuhfalaridan kamol topgan bo‘ladi.

Inson go‘zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umidlar bilan komillikka – kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, bulardan namuna-yu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne’mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o‘zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azo-uqubatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql nemati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o‘qish, o‘rganish, tahlil etish, idora qilish, e’tiqod qo‘yish, hayot tajribasini egallash bilan ro‘yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog‘liq bo‘lganidek, odam bolasining komil inson bo‘lib yetishishi uchun uning murg‘aklikdan tarbiyalab borishga e’tibor berish lozim.

Ma’lumki, bolani layoqatga mos holda o‘stirish uchun unda yoshlikdan mehnatsevarlik va ishchanlik ko‘nikmasini hosil qilish kerak. Mehnatsevarlik – muttasil o‘tirib ishlash kabi fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta’sir etadigan omillar bir qancha bo‘lsa ham lekin, maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi.

Chunki, birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit ta’siri bera olmagan fazilatlar o‘zlashtriladi va narsalar o‘rganiladi, ya’ni bilim, egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklarni o‘zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishishini tezlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Inson

kamol topishida, barkamol inson bo‘lib yetishishida maktabning ahamiyati juda katta. Bolalar maktabga qadam qo‘yar ekan, ular o‘quv mehnati bilan band bo‘ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallab olishi bilan birga ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O‘quvchi tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo‘lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Reja asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etib, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko‘rsatadi. Tarbiyachi o‘z tarbiyalovchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo‘lishi, yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga yordam berishi lozim.

Umuman, pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyatbola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta’sir etishi mumkin [N. G. Dilova:2].

Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo‘lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan uyushtirilgan har qanday faoliyat ham o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham aqlan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o‘rganib boriladi.

Shaxsning kamolga yetishishida, uning barkamol inson bo‘lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o‘rni va roli beqiyosdir [Z. D. Rasulova:3].

Chunki bu tarbiya usullari birgalikda amalga oshirilsa biz O‘zbekiston yoshlari sog‘lom bo‘lishimiz, sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanishimiz lozim. Agar biz sog‘lom bo‘lsakkina, farzandlarimiz ham sog‘lom bo‘ladi.

Shunday ekan biz yoshlar bo‘lg‘usi pedagoglar, avvalo, o‘zimiz har tomonlama yetuk kamolotga yetishishimiz, bilim va malakaga ega bo‘lishimiz uchun qunt bilan o‘qishimiz darkor. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning qo‘llanilishiga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘imiz lozim. Bunda mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va ularni qo‘llashda oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilishimiz muhim hisoblanadi. Yoshlar ertangi kunning bunyodkorlari kelajak avlodni tarbiyalash, o‘qitishdek ma’suliyatli va sharafli ishga qo‘l urar ekanmiz, hozirdanoq o‘z bilimimizni oshirishimiz, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Ajdodlar merosida ta’limdagi ta’limdagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari.2019.7-b.
2. Dilova N.G. O‘quvchilarning shaxsiy sifati – pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili.2018.62-b.
3. Rasulova Z.D. Talabalarning kreativligini rivijlantirishda masofaviy ta’limning o‘rni.2017.37-b.